



O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O’ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

GUMANITAR FANLARNI O’QITISHNING ZAMONAVIY ILMIY YO’NALISHLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI

2021-
yil

8-MAY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

**“GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING
ZAMONAVIY ILMIY YO‘NALISHLARI”**

respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

Toshkent – 2021

ISBN: 978-9943-7285-4-7

UO‘K: 377.112.4

KBK: 74.266

Oliy ta’lim mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan muhim ta’lim bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun ham mehnat bozorida raqobatdosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta’lim tizimi sifati va samaradorligini tubdan oshirish har bir mamlakat ijtimoiy siyosatining asosiy negizini tashkil etadi. Mazkur masalani hal qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘ziga xos o‘rnini bor.

Mazkur to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-yil 8-mayda tashkil etilgan “Gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy ilmiy yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallaridan iborat.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq tashkil etilgan. Ilmiy anjumanda respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida, kasbiy ta’lim hamda umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida ilmiy tatqiqotlar olib borayotgan respublikamiz olimlari, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning vaqolalari jamlangan.

To‘plam uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov f.f.d., professor

Ilmiy muharrirlar: I. Aslonov. psixol.f.n., dotsent, D. Arapbaeva psixol.f.n., dotsent.

Taqrizchilar: L. Raupova f.f.d. professor, va Sh. Abdullayeva f.f.d. professor

Tahrir hay’ati: V. Muxamedjanova t.f.n. dotsent, I. Uzakov p.f.n.,

A. Bo‘ronov, Sh. Muxamedov,

Tuzuvchilar: I. Aslonov. psixol.f.n., dotsent, D. Arapbaeva psixol.f.n., dotsent,

R. Alimbayeva, M. Karimova, A. Zarifov

Sahifalovchi va dizayner: Sh. Tursun

Matnlarda foydalananilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

UO‘K: 377.112.4

KBK: 74.266

ISBN: 978-9943-7285-4-7

© “Lesson Press” nashriyoti.
© ToshDO‘TAU, 2021

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida 2021 yil 8-may kuni “Gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy ilmiy yo‘nalishlari” mavzusida o‘tkazilayotgan onlayn-ilmiy-amaliy konferensiyasiga

KIRISH SO‘ZI

Assalomu aleykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Zamonaviy oliv o‘quv yurtlarida gumanitar fanlarni o‘qitish doimo ilmiy jamoatchilik, o‘qituvchilar, doktorantlar va talabalarda katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Jamiyatimizda kechayotgan katta ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, ta’limning yangi zamonaviy tizimlariga o‘tilishi, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarini joriy etish - bularning barchasi oliv ta’limdagি bizga tanish bo‘lgan an’anaviy muhitni tubdan o‘zgartiradi va ta’lim ishtirokchilaridan ham tegishli munosabatni, faollikni talab qiladi. Bugungi anjuman mavzusi g‘oyatda dolzarb, chunki gumanitar fanlarning talaba shaxsini shakllantirishdagi ta’sirini hech kim inkor eta olmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning o‘zbek ziyolilari, olimlari va pedagoglari oldiga qo‘ygan muhim masalalardan biri jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, ayniqsa yoshlar ma’naviyatini yuqori saviyaga ko‘tarish masalasidir. Bu esa oliv ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni yuqori darajada o‘qitilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bu borada so‘z borar ekan, men anjuman ishtirokchilarining e’tiborinni masalaning uchta muhim tomoniga qaratishni zarur deb bilaman:

birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlar ma’naviyati, odob-axloqi va dunyoqarashini shakllanishdagi rolini ko‘rsatib berish, chunki bugungi kunda ta’lim oldiga faqat o‘z sohasida yuqori darajadagi bilimga ega bo‘lgan mutaxassisnigina emas, balki har tomonlama shakllangan madaniyatli, keng dunyoqarashli, vataniga fidoiy avlodni tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Ushbu muhim masalani hal qilishda tarix, falsafa, etika-estetika, psixologiya, pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning ahamiyati katta;

ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning jamiyatning turli sohalariga integratsiyasini zarur darajada ta’minalashga erishish, ya’ni bu fanlar turli mutaxassisliklar sohalar uchun kadrlar tayyorlashda shu kasblar uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kompitensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim;

uchinchidan, ijtimoiy – gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari loyihibarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

Konferensiyada taqdim etilgan ishlar xil ijtimoiy va gumanitar fanlarni qamrab olgan. Mazkur anjumanning respublika miqyosida tashkil etilishi ushbu sohalarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan doktorantlar, magistrler hamda ilm-fanga dastlabki qadamlarini qo‘yishni ahd qilgan talabalar uchun o‘ziga xos minbar va tajriba maktabi bo‘ladi, deb o‘yayman.

Anjumanga respublikamizning deyarli barcha viloyatlaridan maqolalar kelib tushgan va u oliv ta’lim tizimida aynan ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida faoliyat olib borayotgan yetakchi olimlarni jalg‘etgan.

Men “Gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy ilmiy yo‘nalishlari” mavzusida o‘tkazilayotgan onlayn-ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarini samimiy qutlayman va anjuman ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman. O‘yaymanki, ushbu konferensiya an’anaga aylanadi va har yili oliv ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalarini hal qilishda muhim ilmiy-amaliy tadbirlardan biri bo‘lib qoladi, degan umiddaman.

Rektor
filologiya fanlari doktori, professor,
Shuhrat Sirojiddinov

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI	4
ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИГА ЭРИШИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЕЧИМЛАРИ	
Абдурахмонов Одил Қаландарович	13
ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА СЎЗНИНГ ЎРНИ	
Собиров Абдулҳай Шукурович, Б.Маллабоев	16
ОЛИЙ ТАЪЛИМ ДИДАКТИКАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТРЕНДЛАРИ ИСЛОҲОТЛАРНИ БЕЛГИЛОВЧИ ТЕНДЕНЦИЯ СИФАТИДА	
Абдуллаева Шахзода Абдуллаевна	21
ИСТОРИЧЕСКИЕ СУДЬБЫ ЖЕНЩИН В ПОЭЗИИ АБДУЛГАМИДА ЧУЛПАНА	
Мухамеджанова Вера Авроровна	27
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ETNOMADANIY TAFAKKUR O‘ZGARISHLARI	
Baratov Rashit O‘sarovich	32
ШАХСГА ЙўНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	
Файзиева Мавлуда Худаяровна	35
ЁШ ЎҚИТУВЧИЛАРДА КОМПЛАЕНСНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ	
Қосимова Наргиза Дилмуратовна.....	38
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАШУВ	
Хурвалиева Тармиза Латиповна	41
O‘ZBEK OILALARIDA GENDER TENGLIKNI NAMOYON BO‘LISHI VA ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	
Saribaeva Umida Sattarovna	44
I SHO‘BA:	
OLIY O‘QUV YURTLARIDA GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
ФИЛОЛОГИЯ ЙўНАЛИШИДА ТАЪЛИМ ОЛАЁТГАН ТАЛАБАЛАРГА ФАЛСАФА ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	
Бўронов Анвар Қорабоевич	48

UDK: 82

ABAY IJODIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLAR

Arapbayeva Damegul Kurbanovna

damegul.83@mail.ru

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Abay o‘z hayot faoliyati davomida insonlarning ma’rifatli bo‘lishlarini, millat manfaatlari yo‘lida birgalikda harakat qilishlari kerakligini ularga singdirishga urindi.

Abay millat va Vatan manfaatlari yo‘lida insonlarni ilmga, ma’rifatga, o‘zini anglashga chaqiradi. Millatning ravnaqi uchungina emas, balki uning kelajagi uchun ham ilm kerakligini, ilm orqali millat o‘z kelajagini ko‘ra olishini u anglab yetganligi uchun ham millat vakillarini ilmga, ma’rifatga chaqirdi.

Abay ijodida inson muammosi, uning kelajagi ham muhim o‘rin egallaydi. Jamiyatning asosini tashkil etuvchi insonga u katta e’tibor beradi. Uning tarbiyasi, axloqi, odobi, bilimi, malakasi, qobiliyati, fahm-farosati, qiziqishi, tafakkuri va uning yetukligi, ya’ni bir so‘z bilan aytganda ma’naviyati jamiyat uchun katta boylik ekanligini Abay o‘z asarlarida ko‘rsatib o‘tadi [1].

Inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik ahvol haqida ham Abay o‘z asarlarida bayon etadi. Abay insonga tegishli faoliyat asosida uning psixik jarayonlari yotishini va har bir insoniy xatti-harakatda his-hayajon, emotsiyonal holatlar mavjudligini bilgan holda o‘z asarlarini bitgan. Ma’lumki inson hayotining mohiyati – unda yuz berayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan ko‘rinadiki, shaxsning psixik xususiyatlari ijtimoiy munosabatlar asosida xarakterlanadi va belgilanadi. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlarning ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Abay shuning uchun ham insonlarni ilm, ma’rifat berish orqali tarbiyalash, ularning ongini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratdi. Bu masalalarda u, albatta, psixik jarayonlarni hisobga oldi [1].

Abay ijodining muhim tomonlaridan biri bu insonlarni tarbiyalash, ularning ma’naviyatli bo‘lishini ta’minlash edi. Bu yo‘lda u pedagogika, psixologiya, tarbiya masalalariga katta e’tibor beradi. Ayniqsa, psixik jarayonlarni hisobga olgan holda inson tarbiyasi, uning o‘zlashtirish masalalari, xarakterini shakllantirish va jamiyat uchun foydali inson qilib tarbiyalash masalalari Abay faoliyatining asosini tashkil etadi [1].

Jamiyatning asosini tashkil etuvchi insonni tarbiyalashda Abay katta e’tibor beradi. Inson axloqi, odobi, bilimi, malakasi, qobiliyati fahm farosati, qiziqishi, tafakkuri, manfaati, ehtiyoji va uning yetukligi, ya’ni bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyati jamiyat uchun juda katta boylik ekanligini Abay o‘z asarlarida ijtimoiy-psixologik, falsafiy ma’noda ifodalaydi [2].

Inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik holat haqida Abay o‘z asarlarida to‘xtalib va tahlil qilib o‘tadi. Abay jamiyat masalalarini o‘rganar ekan, xalq uchun, uning rivojlanishi uchun ma’rifatli bo‘lishi juda katta manba ekanligini biladi. Shuning uchun ham u insonlarga o‘z hayotlarini, rivojlangan xalqlarning hayotlarini ko‘rsatib beruvchi va xalqning qalbiga, ongiga tez ta’sir etuvchi omillarni izladi. Inson o‘zi kabi boshqa xalqlarning hayotini o‘rganib borib, undagi ilg‘or fikrlarni, amaliyotni kuzatib borib, foydali tomonlarini o‘rganadi va o‘z hayotiga tatbiq etadi.

Umuman olganda, Abay faoliyati bu insonlarni tarbiyalash orqali dunyoviy mamlakatlar kabi bo‘lishga, intilishning nazariy va amaliy jarayonini tashkil etadi. Uning psixologik tomonlari aynan insonga xos axloqiy, emotsiyonal jarayonlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq ming yillar davomida o‘zining yuksak ma’naviyati va madaniyati bilan dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shib keldi. Qadimgi turkiy xalqlar orasidan ko‘plab allomalar yetishib chiqdiki, ularning bizga qoldirgan meroslari butun jahon xalqlari uchun va madaniyati uchun hozirda ham katta ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda.

Buyuk mutafakkir Abay Qo‘nanboyev o‘z asarlarida inson ruhiyati, psixologik jarayonlari haqida ko‘plab bilimlarni hayot faoliyatlari bilan bog‘lagan holda ko‘rsata olganlar. Albatta, ularning ruhiyatga oid maxsus asarlari bo‘lmasa da, lekin jamiyatni o‘rganish bilan, inson axloqiy masalalarini tahlil qilish bilan bog‘liq holda ko‘pgina psixologiyaga oid fikrlarni aytib o‘tganlar. Shuni qayd etib o‘tish joizki, inson ruhiyatini ruhiy-psixologik kechinmalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Abay ijodida inson psixologiyasi, jamiyatning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, mehnat psixologiya, hozirgi zamon psixologiyasi yo‘nalishlariga mos fikrlar mavjud. Ular inson va jamiyat masalalariga o‘z diqqatlarini qaratib, inson ruhiyati bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni tahlil qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абай. Қара сөздер: поэмалар / (Ибраһим) Құнанбаев Абай . – Алматы: “Атлас”, 2001.
2. Абай. Шығармаларының екі томдық жинағы: Өлеңдер мен аудармалар. – Алматы: “Жазушы”, 2001.
3. Abdurahmonov F.R. Qadimgi Sharqda psixologik fikrlar taraqqiyoti. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – 72 b.